



TIJORAT BANKLARIDA MASOFAVIY XIZMAT KO'RSATISH LOYIHALARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Sirojiddinova Sabina Jaloliddin qizi

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

"Loyiha boshqaruvi" mutaxassisligi magistranti

E-mail: sirojiddinovasabina72@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston tijorat banklarida masofaviy xizmat ko'rsatish loyihalarini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida raqamli transformatsiyaning bank rentabelligiga, operatsion xarajatlarni kamaytirishga va moliyaviy barqarorlikka ta'siri statistik ma'lumotlar asosida o'rganilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, masofaviy xizmatlarning kengayishi tranzaksion xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirib, banklarning raqobatbardoshligini oshiradi.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, masofaviy bank xizmatlari, iqtisodiy samaradorlik, mobil banking, moliyaviy barqarorlik, kiberxavfsizlik.

Abstract: This article analyzes the economic efficiency of digitalizing remote service projects in commercial banks of Uzbekistan. The study examines the impact of digital transformation on bank profitability, operational cost reduction, and financial stability based on statistical data. The results show that the expansion of remote services significantly reduces transaction costs and enhances the competitiveness of banks.

Key words: digital transformation, remote banking services, economic efficiency, mobile banking, financial stability, cybersecurity.

Аннотация: В данной статье анализируется экономическая эффективность цифровизации проектов дистанционного обслуживания в коммерческих банках Узбекистана. В рамках исследования на основе статистических данных изучено влияние цифровой трансформации на



рентабельность банков, снижение операционных расходов и финансовую устойчивость. Результаты показывают, что расширение дистанционных услуг значительно снижает транзакционные издержки и повышает конкурентоспособность банков.

Ключевые слова: цифровая трансформация, дистанционные банковские услуги, экономическая эффективность, мобильный банкинг, финансовая стабильность, кибербезопасность.

Kirish. Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida, xususan, moliya-bank tizimida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida tub o'zgarishlar yuz bermoqda [1]. O'zbekiston iqtisodiyotida ham raqamli transformatsiya davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi va Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar bank tizimida innovatsion va masofaviy yechimlarni joriy etish orqali samaradorlikni oshirish hamda moliyaviy ommaboplikni kengaytirishga qaratilgan [2].

Masofaviy bank xizmatlari mijozlarga bankka tashrif buyurmasdan turib, mobil aloqa yoki internet orqali operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi [3]. Bu jarayon nafaqat mijozlar uchun qulaylik yaratadi, balki banklar uchun operatsion xarajatlarni kamaytirish va biznes-modellarni diversifikatsiya qilish orqali yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishishning asosiy omili hisoblanadi [1].

Mavzuga oyd adabiyotlar sharhi. Raqamli iqtisodiyot va uning bank tizimiga ta'siri bo'yicha ilmiy izlanishlar bir necha o'n yilliklardan buyon davom etib kelmoqda. Jumladan, "raqamli iqtisodiyot" atamasini ilk bor muomalaga kiritgan Don Tapskottning fikricha, transformatsiya jarayonining muvaffaqiyati bevosita raqamli madaniyatning rivojlanish darajasiga bog'liqdir [4]. Umumiy innovatsiyalar nazariyasida P. Druker va B. Santo kabi olimlar bu jarayonni tadbirkorlik faoliyatini yangi bosqichga olib chiquvchi o'ziga xos instrument yoki vosita sifatida baholasalar [6], I. Balabanov bank innovatsiyasining xususiyatlarini bankning yangi mahsuloti yoki operatsiyasi shaklidagi jarayon sifatida tavsiflaydi [7]. O. Melikov esa bank texnologiyalarini faoliyatni amalga oshirish va qo'llab-quvvatlashning eng yangi yondashuvlari, usullari va vositalari yig'indisi deb e'tirof



etadi [8].

Raqamli texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi borasida Brynjolfsson va McAfee raqamli yechimlar operatsion xarajatlarni kamaytirishi bilan birga mehnat unumdorligini tubdan yaxshilashini asoslab berganlar [9]. Shuningdek, Vives raqamli transformatsiya bank tizimida sog'lom raqobat muhitini shakllantirishini va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashini ta'kidlaydi [10]. Mazkur yo'nalishda OECD ekspertlari ham raqamli moliya tizimi yangi imkoniyatlar yaratishini qayd etgan holda, innovatsiyalar va xavfni boshqarish mexanizmlarining uyg'unligi muhimligini alohida urg'ulaydi [11]. Jahon banki tadqiqotlarida esa raqamli xizmatlarning aholi o'rtasida moliyaviy inklyuziyani (ommaboplikni) kengaytirishdagi o'rni ustuvor vazifa sifatida ko'rsatilgan [12].

O'zbekiston bank tizimida raqamlashtirish masalalari mahalliy olimlar tomonidan ham atroflicha o'rganilgan. Vahobov va O'lmasov bank tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etishning afzalliklari va mavjud muammolarini tahlil qilgan bo'lsa [13], F.U. Umurzakova respublika banklarining IT-platfomalari hali to'liq moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi maydonchaga aylanmaganligini va bu borada kamchiliklar mavjudligini ta'kidlaganlar [14]. M. Sagdiyeva o'z tadqiqotlarida raqamli bankni innovatsion texnologiyalar yordamida masofaviy xizmat ko'rsatuvchi yaxlit tizim sifatida tavsiflaydi [5]. S. Bobojonovanning ilmiy izlanishlari natijalari esa raqamli transformatsiya natijasida O'zbekiston tijorat banklarida rentabellik ko'rsatkichlari (ROA va ROE) o'rtacha 18–22 foizga oshganini ko'rsatib, jarayonning yuqori iqtisodiy samaradorligini empirik jihatdan tasdiqlaydi [15].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda O'zbekiston tijorat banklarining 2019–2025-yillardagi statistik ma'lumotlari tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi sifatli va miqdoriy tahlil, qiyosiy taqqoslashlarni o'z ichiga oladi. Banklarning moliyaviy holatini baholashda Z-score ko'rsatkichi, kapital yetarliligi (CAR), muammoli kreditlar ulushi (NPL) va operatsion samaradorlik (CIR) indikatorlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR. O'zbekiston bank sektorida raqamli



transformatsiya ko'rsatkichlari so'nggi yillarda davlat strategiyalari va Markaziy bank islohotlari natijasida jadal o'sishni namoyon qildi [15]. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bank xizmatlarini raqamlashtirish nafaqat mijozlar uchun qulaylik yaratdi, balki banklarning moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy samaradorligini ta'minlovchi asosiy drayverga aylandi [15; 16].

2025-yil natijalariga ko'ra, mobil bank ilovalari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar hajmi 646 trln so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich oldingi yilga (397 trln so'm) nisbatan 1,6 barobarga oshgan [17]. Shuningdek, naqd pulsiz hisob-kitoblar infratuzilmasining kengayishi natijasida bank kartalari orqali amalga oshirilgan operatsiyalarning 81,3 foizi naqdsiz shaklda bajarilgan [17].

1-jadval. **O'zbekiston bank sektorida raqamli transformatsiya ko'rsatkichlari dinamikasi (2019–2024)**

Ko'rsatkichlar	2019	2021	2023	2024
Raqamli to'lovlar hajmi (trln so'm)	25	68	124	160
Masofaviy xizmat foydalanuvchilari (mln kishi)	9.2	18.4	27.5	32.1
Mobil banking foydalanuvchilari ulushi (%)	22%	44%	63%	78%
POS terminallar soni (ming dona)	108	210	389	434
Bank kartalari soni (mln dona)	14	22	31	34

Manba: O'zRMB va tijorat banklari hisobotlari asosida muallif tomonidan to'ldirildi.

1-rasm. **Raqamli to'lovlar hajmining o'sish trendi (2019–2024, trln so'mda)**



O'zbekiston bank tizimi so'nggi yillarda jadal raqamli transformatsiyani boshdan kechirmoqda. To'lov infratuzilmasining kengayishi va aholining mobil bank xizmatlariga ishonchi ortishi natijasida raqamli operatsiyalar hajmi rekord darajada o'sdi.

Raqamli to'lovlar hajmining o'sish dinamikasi (trln so'mda)



O'sishning asosiy omillari



Infratuzilma va mobil ilovalar kengayishi.

POS-terminallar soni va mobil ilovalar foydalanuvchilari ulushining ortishi o'sishga xizmat qildi.



Operatsion samaradorlikning oshishi.

Raqamli platformalarga o'tish xizmat ko'rsatish xarajatlari 25-30 foizgacha qisqartirdi.

Manba: O'zRMB (2024), World Bank (2024), VISA (2024) va KPMG (2025) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

(Ushbu 1-rasmda 2019-yildagi 25 trln so'mdan 2024-yildagi 160 trln so'mgacha bo'lgan 6,4 barobarlik eksponensial o'sish aks etgan)

Tadqiqot doirasida o'tkazilgan empirik tahlillar Raqamli transformatsiya indeksi (DTI) va banklarning moliyaviy barqarorligi o'rtasida kuchli korrelyatsiya mavjudligini tasdiqladi [1]. Xususan, panel regressiya modeli natijalariga ko'ra, DTI indeksi 1 foiz punktga oshganda, banklarning Z-score ko'rsatkichi (riskka chidamlilik darajasi) o'rtacha 0,32 punktga ijobiy tomonga o'zgaradi [1].

Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari bo'yicha quyidagi natijalar aniqlandi:

- Xarajatlarni tejash: Masofaviy bank xizmatlarining kengayishi va xizmat ko'rsatish jarayonlarining avtomatlashtirilishi natijasida tranzaksion va operatsion xarajatlar o'rtacha 40–60 foizga qisqargan [5]. Bu, o'z navbatida, banklarning operatsion samaradorlik ko'effitsiyenti (CIR) yaxshilanishiga xizmat qildi [15].

- Rentabellik darajasi: Raqamli platformalarga to'liq o'tgan banklarda rentabellik ko'rsatkichlari (ROA va ROE) an'anaviy banklarga nisbatan o'rtacha 18–22 foizga yuqori sur'atlarda o'sgan. Masalan, mobil ilovalar orqali olingan komissiya daromadlari banklarning foizsiz daromadlari tarkibida salmoqli ulushga ega bo'la boshladi [15; 17].



- Kredit portfeli sifati: Sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan scoring tizimlarining joriy etilishi natijasida qaror qabul qilish tezligi ortdi va kredit portfeli sifati 30 foizga yaxshilandi. Bu muammoli kreditlar (NPL) ulushini 2024-yildagi 4 foizdan 2025-yilda 3 foizgacha kamaytirish imkonini berdi [5; 15].

- Moliyaviy inklyuziya: Raqamlashtirish jarayonlari natijasida aholining bank xizmatlari bilan qamrab olinish darajasi (inklyuziya) 65 foizdan oshdi. Ayniqsa, masofaviy xizmatlar orqali chekka hududlardagi aholining moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati sezilarli darajada yaxshilandi [15; .

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiya loyihalari nafaqat banklarning ichki samaradorligini oshirdi, balki ularning umumiy moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda strategik ahamiyat kasb etmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR. O'zbekiston tijorat banklarida masofaviy xizmat ko'rsatish loyihalarini raqamlashtirish bank tizimi barqarorligini mustahkamlashda strategik omilga aylandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya jarayonlari bank rentabelligini oshirish, operatsion va tranzaksion xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirish imkonini berdi. Masofaviy bank xizmatlarining kengayishi aholining moliya muassasalariga kirish imkoniyatlarini yaxshilab, moliyaviy ommaboplik darajasini yuksaltirdi. Shu bilan birga, jarayon banklararo raqobat muhitini sog'lomlashtirib, innovatsion ekotizimlarning shakllanishiga turtki bo'ldi. Biroq, jadal raqamlashtirish kiberxavfsizlik tahdidlari, hududlararo raqamli tafovut va xodimlarning professional malakasi bilan bog'liq yangi muammolarni keltirib chiqardi.

O'zbekiston bank sektorida raqamlashtirish samaradorligini yanada oshirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Kiberxavfsizlik infratuzilmasini mustahkamlash: Zamonaviy tahdidlarga qarshi xalqaro standartlarga mos xavfsizlik protokollarini joriy etish va sun'iy intellektga asoslangan monitoring tizimlarini rivojlantirish lozim.
2. Inson kapitaliga investitsiyalarni ko'paytirish: Bank xodimlarining raqamli kompetensiyalarini oshirish bo'yicha doimiy ta'lim dasturlarini yo'lga qo'yish va ularni yangi texnologik muhitda ishlashga tayyorlash zarur.



3. Sun'iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanish: Kredit risklarini baholash va mijozlar bilan munosabatlarni boshqarishda intellektual tahlil usullarini tatbiq etish orqali xizmatlar sifatini yangi bosqichga olib chiqish taklif etiladi.
4. Hududiy nomutanosiblikni bartaraf etish: Chekka va qishloq hududlarida internet qamrovini yaxshilash hamda aholining raqamli savodxonligini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.
5. Me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish: Raqamli bank xizmatlarini tartibga solish mexanizmlarini xalqaro tajriba asosida yanada rivojlantirish va kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning huquqiy asoslarini kuchaytirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Maxmudova M.Z. (2025) O'zbekiston banklarining raqamli transformatsiyasi va uning moliyaviy barqarorlikka ta'siri. // Journal of International Finance and Accounting, 4(8), 1-11 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
3. Karimov Sh.A. (2024) Raqamli iqtisodiyot sharoitida banklarda masofaviy xizmat turlari hamda sun'iy intellekt qo'llash istiqbollari. // Zenodo, 2024.
4. Tapscott D. and Tapscott A. (2016) Blockchain Revolution: How the Technology behind Bitcoin Is Changing Money, Business, and the World. Penguin, New York, 324 pages.
5. Sagdiyeva M.R. (2025) Tijorat banklari tizimini raqamlashtirish jarayonida innovatsion bank texnologiyalarini rivojlantirish. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 00078-son, 94-100 b.
6. Питер Ф. Друкер (2018) Бизнес и инновации, 432 с.
7. Балабанов И.Т. Инновационный менеджмент: учебное пособие для вузов /— Москва, 2021.
8. Melikov O.M. (2021) Rakamli bank texnologiyalari va ularning uziga xos xususiyatlari xmda ulardan samarali foydalanish yullari. // Iktisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. №4, 290-301 b.
9. McAfee A. & Brynjolfsson E. (2017). *Machine, Platform, Crowd: Harnessing*



Our Digital Future. W.W. Norton & Company.

10. Vives X. (2019). Digital Disruption in Banking. *Annual Review of Financial Economics*, 11, 243-272. <https://doi.org/10.1146/annurev-financial-100719-120854>

11. OECD (2024). Digitalisation of financial services, access to finance and aggregate economic performance.

12. World Bank (2023). Financial Inclusion in Central Asia: Trends and Prospects. Washington, D.C.

13. O'Imasov A., Vahobov A. "Iqtisodiyot nazariyasi." Darslik. Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2014 yil. 135-136 b.

14. Umurzakova A. O. (2022) Prospects for innovative development of banks in Uzbekistan // *Academicia Globe: Inderscience Research*. 3(06). – pp. 84-88.

15. Bobojonova S.B. (2025). O'zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiyaning iqtisodiy samaradorligi // *Muhandislik va iqtisodiyot jurnali*, № 10, 528-532 b.

16. Davletova N.T. (2025) Measuring the Efficiency of Digitalization in Banking Services: Theoretical and Practical Approaches // *International Journal of Artificial Intelligence*, 5(09), 134-141.

17. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki // *Yillik hisobot 2025, (2026)* <https://cbu.uz/upload/medialibrary/964/07iq5gf3vjv0vw7636kvcccbudz35jdm/Yillik-hisobot-2025.pdf>